



**Tadqiqot** UZ



**ЎЗБЕКИСТОН  
ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ  
ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАРИ  
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**2021**

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**31 MART  
№26**

**CONFERENCES.UZ**

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 26-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
3-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
26-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-3**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
26-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-3**

**ТОШКЕНТ-2021**



**УУК 001 (062)**  
**КБК 72я43**

## **"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]**

**"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар"** мавзусидаги республика 26-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 март 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 29 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **5. Давлат бошқаруви**

PhD Шакирова Шохида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



### **8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

### **9.Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

### **10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

### **11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

### **12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

### **13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

### **14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

### **16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

### **18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

### **19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

### **21.Кимё фанлари ютуқлари**

Раҳмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



## **22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

## **23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

## **24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

## **25. География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР**

<b>1. Йулдашева Зухра</b> ПАХЛАВАН МАХМУД И ЕГО НАСЛЕДИЕ .....	7
<b>2. Nazokat Rasulova Abdurahimovna</b> BUYUK SALTANATNING ADOLATSIZ INQIROZI.....	9
<b>3. Mirkamolava Xolida Tursunpo'latovna</b> TARIX DARSLARIDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL O'YINLAR .....	12
<b>4. Egamberdiyeva Arzigul</b> BUYUK IPAK YO'LINING QAYTA TIKLANISHI VA AHAMIYATI .....	14
<b>5. G'aybullayeva Aziza</b> TARIXIY ATAMALAR ISHTIROKIDAGI "JUFTINI TOP" MASHQINI SCRATCH PLATFORMASIDA DASTURLASH VA TARIX DARSLARIDA FOYDALANISH.....	16
<b>6. Ibrohimova Zilola Raxmatovna, Ibrohimova Farida Raxmatovna</b> ILK O'RTA ASRLAR GEOGRAFIYASI VA ARABLARNING O'RTA OSIYOGA ISTILOSINI DAVRI TARIXIY GEOGRAFIYASI.....	18
<b>7. Kariyeva Anaxon</b> JADIDCHILIK HARAKATI VA UNING AHAMIYATI.....	19
<b>8. Sharipova Hokima Yahyoyevna, Maxmudova Aziza Ulug'bek qizi</b> TURKIY BITIKLAR VA ULARNING O'ZBEK XALQI QADIMIYATINI O'RGANISHDAGI O'RNI MAVZUSINI YANGI PEDOGOGIK VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QITISH.....	21
<b>9. Asrorov Kozimxon Olimxon ўғли</b> МАРКАЗИЙ ОСИЁДА ДОНҒИ КЕТГАН ХАТТОТЛАР.....	22
<b>10. Кожахметов Науризбай Жарбусинович</b> "TEMUR TUZUKLARI"-AMIR TEMUR DAVRIDAGI HARBIIY SAN'AT TARIXI BO'YICHA MUHIM MANBA.....	25
<b>11. Неъматова Дилафруз</b> ИНФОРМАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ПЕДАГОГИК ЖИХАТЛАРИ.....	26



## ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

### ПАХЛАВАН МАХМУД И ЕГО НАСЛЕДИЕ

Йулдашева Зухра

Хорезмская область город Ургенча.  
специализированная Школа №3  
учитель истории

**Статья посвящается** легендарному личности Пахлавана Махмуда. О его наследие оставленной после себя.

**Ключевые слова:** рубайи, жуванмардия, суфизм, борец, философ.

Информация о Пахлаване Махмуде и его мавзолее встречается во многих литературных источниках: «Нафосат уль-унс» («Дыхание друзей») Абдурахмана Джамии (1414–1492) и «Насаим уль-мухаббат» («Удары любви, распространяющие благоухание величия») Алишера Навои посвящены суфийским философам, известным как святые. Когда Навои и Джамии начинают говорить об известных людях своего времени, они заостряют внимание на их профессии. Говорят, что под добродетелями этих людей понимается то, что они зарабатывают на жизнь своей профессией, своим честным трудом. Например, Навои пишет о Пахлаване Махмуде: «Пахлаван Махмуд из Паккайора Хивака и его прозвище Пурёрга, какой-то Паккайор, но хивинец был обследован и поставлен диагноз, решено было Паккайор, то есть Паккайор - сын мясника. Он преуспел в борьбе и прославился. Его могила находится в Хиваке».

Самым старым произведением о нем является «Меджлис уль-ушшак» Камолиддина Хусайна Гозургохи, копия которого была скопирована в 1506 году и украшена миниатюрами и хранится в Институте востоковедения имени Абу Райхана Беруни в Ташкенте. В спектакле есть замечательная миниатюра «Борьба Пахлавана Махмуда с индейцем». Кроме того, Худойберди Кушмухаммад оглу из Хивы в своем произведении «Странное сердце» (1831 г.) дал интересные сведения о Пахлаване Махмуде и его мавзолее. Ценные сведения об этом замечательном историческом памятнике мы видим в дневниках и переписке европейских и русских путешественников и солдат. В произведениях местных авторов «Рияз-уд-давля», «Фирдавсул икбол», «Шаджарайи Хорезмшахи» мы знакомимся с более подробными материалами о Пахлаване Махмуде.

Как нам известно Пахлаван Махмуд родился в городе Куна Ургенче. Его отец был ремесленником скворняжником. С юных лет он учился в местных школах потом продолжил в медресе. Он увлекался спортом курашом. Именно в этот период распространился одно из течений суфизма жуванмардия. Это движения объединяло себе борцов против насилия. Потому что этот период характерен тем что после захвата монголами население часто подвергалось к насилию и грабежу. Пахлаван Махмуд был руководителем этого течения. Они помогали простому населению и защищали их от грабежи и насилия. Все свои вклады он отдавал народу нуждающимся слою населения. Самая известная легенда о Пахлаване Махмуде это борьба его с индийским борцом. Здесь он специально проиграл состязание так как его соперника в случае проигрыша ждала смерть. Но в ходе события индийский султан узнаёт истину и награждает его тем что отпускает всех пленных хорезмцев к родине. В пожилом возрасте Пахлаван Махмуд писал рубайи. Он рассказывает о тяжелой и замечательной человеческой жизни, воспевае мужество, честность. В то же время в лирике поэта ошутимо философское звучание, грусть, жизненная тоска нравственности, моральные качества людей о доброте, милосердие и миролюбивости:



Сказать всю суть в словах немногих ряд я  
Цените каждый миг, пока мы вместе, братья  
Слетелись чудом мы под счастья крыло  
А разлетимся – трудно вновь собраться.

В этой стихотворении он пишет о жизни. Ценить каждый миг каждый свой пройденный день. Люди должны дорожить всем что есть так как оно даётся человеку один раз. В философских размышлениях Пахлаван Махмуд разрабатывал понятие нравственности, мужества, доблести. Его основные принципы были щедрость души, милосердие, благородство, скромность и покорность Создателю.

**Использованные литературы:**

1. Хива тысяча куполов. Ургенч., 1997.
2. Алишер Навои. Мажолис ун нафоис Т.,1988г
3. Снесарев Г.П. Хорезмские легенды. М.:Наука 1983
4. Гулямов Я.Г. Памятники города Хивы Т.: 1986
5. Пугаченкова Г.А. Памятники Архитектуры Узбекистана М.: 1988
6. Худойберганов К. Хива. Ургенч 2017
7. Ремпель А. В Архитектура Узбекистана М.:1980



## BUYUK SALTANATNING ADOLATSIZ INQIROZI

**Nazokat Rasulova Abdurahimovna**  
Toshkent shahar Olmazor tumani  
261-maktab tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tarix fanidan dars beruvchi o'qituvchilar uchun umumta'lim maktabi o'quvchilarining Amir Temur shaxsi va Temuriylar sulolasi vakillari haqidagi bilimlari shakllantiriladi. Sohibqiron vafotidan so'ng esa mazkur saltanatning inqirozi unga sababchi bo'lgan shaxslar va voqealar orqali batafsil muhokama qilinadi. Tadqiqotda o'quvchilarning tarixiy tafakkuri o'sishi bilan bog'liq jarayon va Amir Temur vasiyati o'rinni izohlandi.

**Kalit so'zlari:** Temurlang, Movarounnahr, Chingizxon, valiahd, saltanat, vasiyat, Temuriy shahzodalar, Boburiylar saltanati, Temuriylar davri madaniyati.

Davlati va saltanatida birorta inson behuda ranjitilmagan, zulm ko'rmagan, ilm-fani ham, ilm ahli ham hurmat topgan, eng ezgu maqsadi butun saltanatda madaniyat va san'atning gullab-yashnashiga asos solgan adolatli Amir Temur mag'rib-u mashriqni titratgan fothlar sardoridir.

1370-1405-yillar davomida Eron, Iroq, Turkistonni zabt etgan, Suriya, Hindiston va rus xalqlarini bo'ysundirgan, Turkiyani mag'lub etgan, Damashq, Bag'dod va Dehlida g'alaba qozongan zukko bir jahongir Yevropada Tamerlan (forscha "Temurlang – oqsoq Temur") nomi bilan yashab o'tgan Amir Temur o'ttiz besh yil davomida Osiyoni tiz cho'ktirgan buyuk saltanat barpo etib, uning poytaxti Samarqandni tengsiz me'moriy obidalar bilan bezatgan sarkardadir.

34 yoshida Movarounnahr xonligini qo'lga kiritgan sarkardaning raqiblari Samarqand viloyatining shimoli sharqidagi bundan yarim asr ilgari Chingizxon hukmronligi ostida Osiyo va Yevropani tahlikaga solgan ko'chmanchi, suvoriylar avlodidan bo'lgan, shafqatsizligi bilan ajralib turgan, Rossiya va Turkiston dashtlarida xo'jayinlik qilgan urushqoq mo'g'ul urug'lari Movarounnahrta ta'sir etishi mumkin bo'lgan, g'arbda esa inqirozga yuz tutgan, taxt uchun turli sulolalar o'rtasida ichki urushlar avj olgan Eron va Iroq, Usmonli Turklar ta'siri ostida qolgan Suriya va Misr, janubda turli isyonkor hind qabilalariga qarshi kurashdan toliqqan Hindiston, sharqda Buyuk Ipak yo'lining mo'g'ul xonligi himoyasi ostida karvonsaroylardan behisob boyliklarga ega bo'lgan majusiy Chin o'lkasini g'arbdan keluvchi kuch yenga olmas edi. [2:7]

Amir Temur shu o'lkalarni barchasini zabt etdi. Xitoyga yurish boshlaganida esa unga ajal xalaqit berdi.

Amir Temur mohir sarkarda, bitmas-tuganmas g'ayratga ega rahbar, qat'iyatli, shijoatli jangchi bo'lganligi bizga ma'lum. Uning shaxsi murakkab, qarama-qarshi va rang-barang bo'lib, bu inson tinib-tinchimas bunyodkor edi. U o'z askarlari bilan yonma-yon yashagan, ularning tashvishlarini baham ko'rgan, jangga kirishda ularga bosh bo'lgan, harbiy yurishlarining charchoqlariga, jangohlarning og'ir hayotidan rohat topuvchi jismonan mukammal jangchi bo'lishiga qaramay, ayni kuch-quvvatga to'lgan vaqtida bir oyog'i va qo'lidan jiddiy jarohat olib umr bo'yi uning asoratidan azob chekib yashagan.

Shunga qaramasdan Amir Temurdan o'ta kuchli bir nur va ta'sir kuchi taralib turganligini uning atrofidagi odamlarning cheksiz sadoqatidan, qat'iy tartib asosida yuzaga kelgan charchoq va azob-uqubatlarga to'la hayot tarzini tanlab, unga xizmat qilishga rozi bo'lganlaridan anglash qiyin emas.

Uning qo'shinidagi har bir jangchisi irqi, e'tiqodi va mavqeidan qat'iy nazar mardligi va qahramonligi uchun qadrlanar edi. Jangchilarni rag'batlantirish va jazolash masalasida Amir Temur faqat o'z so'zi va o'z fikriga tayanar edi. U doim o'z askarlari bilan birga bo'lib, ularning qismlariga sherik bo'lar, taqdirlari bilan qiziqar edi. Mana nima uchun uning askarlari u xasta bo'lgan paytlarida uni Osiyoning cheksiz olovli va muzli yo'llarida yelkalarida olib yurishgan. Uning qo'shini tengsiz bo'lib, Ulug' amir irodasining sehri bilan yelkama-yelka jang qiladigan askarlardan iborat edi. Chunki qo'shindagi mo'g'ul eroniy bilan, ko'chmanchi turk bilan, musulmon otashparast bilan, nasroniy butparast bilan turli tilda so'zlashib ularning qalbiga yo'l topa olgan edi.

Amir Temur tuzgan kuchli va o'zaro bog'liq fuqaroviy va harbiy bir ma'muriyat, u uzoq muddatli safarga ketganida ham samarali faoliyat ko'rsatar, kotibiyat vakillari ham (fors tilida olib borilgan) yozma ko'rsatmalariga muntazir turar, barcha voqealarni ro'yhatga olar, chet ellar bilan



yo'zishmalar, yangilanib boradigan hujjatlar ishini tartibli yuritishar edi.

Mana shunday buyuk saltanatning inqirozga yuz tutishi, bu inqirozga sababchi shaxslar va voqealar haqida ikki mashhur temuriy hukmdor - ilmu nujum allomasi Mirzo Ulug'bek hamda shoh va shoir Mirzo Boburning tarixiga murojaat qilmay turib gapirib bo'lmaydi. Tabiiyki savol tug'iladi: nima sababdan turli o'lkalar, millatlar va turfa odamlardan tashkil topgan, mukammal tartib qoida va har sohaga jiddiy e'tibor qaratilgan ulkan saltanat uning asoschisi vafotidan so'ng uzoqqa bormadi?

Sohibqironning saltanat kelajagini ta'minlash borasidagi qator rejalari, muntazam g'alabalarga erisha olgan xislati bilan birga u dunyoga ketgandek ro'yobga chiqmadi.

Taxt vorisligiga munosib Sohobqironning to'ng'ich farzandi Jahongirning va uning o'g'li zakovatli, taxtga munosib Muhammad Sultonning erta vafoti davlat rahbariga lozim bo'lgan xislatlardan yiroq uning inisi Pirmuhammadning valiahd etib tayinlanishi (islom aqidalariga rioya qilib taxtni to'ng'ich farzandga qoldirish asosida), vasiyatga ko'ra bu xabar Turon zamini odatiga asosan saltanatning bir bo'lagi topshirilgan har bir shahzoda, amir va noiblarga yetkazilishi lozim edi. Qattiq sovuq va izg'irinning choparlarga vasiyatni yetkazishida to'siq bo'lganligi, buzg'un va mansabparast shahzodalarning Samarqand atrofida qo'shin to'plab razil va pinhona harakatlarning boshlanganligi, Amir Temurga sodiq bir necha amirlarni qaror va tadbirlarni amalga oshirolmagani, xiyonatchi amirlarning Sohobqiron o'limini sukut saqlab o'rinsiz jangovor harakatlarni Chin ustiga Amir Temur vafotidan behabar g'anim osongina taslim bo'ladi degan noo'rin xulosa bilan harbiy yurish boshlashi o'z hukmdorlarining so'nggi istagiga xiyonatlari bo'ldi.

Ikki yirik xato: Amir Temur o'limining oshkor etilmaganligi va vasiyatning bajarilishini to'xtatib turilishi yaqin atrofda bo'lgan xoinlarning taxtni egallash maqsadi yo'lida foydalanib qolishiga va uzoqdagi shaxzodalarning bu ishlardan bexabar bo'lishlariga sabab bo'ldi. Buning natijasida Amir Temurning jiyani, O'tror hukmdori Sulton Husayn fitna uyushtirib Samarqand taxtni qo'lga kiritish rejasini tuza boshladi. Amir Temurning uchinchi o'g'li Mironshoxning farzandi, Toshkentdagi xarbiy qo'shin sarkardasi Xalil Sulton bobosi tomonidan tayinlangan valiahd Pirmuhammadning (bu vaqtda Pirmuhammad sharqiy Afg'onistonda noiblik qilar edi) uzoqdaligidan foydalanib, qonuniy taxt vorisiga xiyonat qilgan holda Samarqand shahri kalitlarini qo'lga kiritdi. [2:188]

Xalil Sultonning hukmronligi davrida davlat xazinasini o'rinsiz isrof qilinganligi va saltanatda nopok xayot kechirganligi xalq suymagan, jur'atsiz hukmdorning qisqa 3 yillik muddatda taxtdan ketishiga sabab bo'ldi.

Xuroson noibi Amir Temurning to'rtinchi o'g'li Shoxrux Mirzoning Samarqand shahrini o'g'li Mirzo Ulug'bekka topshirishi poytaxtni madaniy-ma'rifiy, ilmiy jihatdan qayta tiklanishiga va qirq yil davomida gullab yashnashiga sabab bo'ldi. Bu davr tarixda "Samarqandning oltin asri" deb ataldi. Otasi Shoxrux Mirzoning o'limidan so'ng, hiyonatkor amirzodalarning Ulug'bekning o'g'li Abdulatifni otasiga qarshi qayrashlari, Abdulatifni "Padarkush" bo'lishiga sabab bo'ldi. Shoxrux Mirzoning (1447) va Ulug'bekning (1449) vafoti Amir Temur saltanatining tanazzulini tezlashtirdi.

Zaiflashib va kichrayib borayotgan Movarounnaxr va Xurosonga Sirdaryoning o'ng qirg'oqlaridagi o'lkalarni zabt etgan Shayboniylar e'tibor qaratdi. Markaziy Osiyoda Amir Temur avlodlari yo'qolib borayotgan bir vaqtda Toshkentning sharqida joylashgan Andijon shahrida sohobqiron bobosi kabi shon shuxratga erishadigan yahgi bir shahzoda dunyoga keldi. Bobur Mirzoning Shayboniylar tomonidan (1526) Samarqanddan haydalishi tariximizda og'ir fojia bo'lgan bo'lsa, Hindistonda afsonaviy Boburiylar sulolasi imperiyasiga (332 yil) asos solinishi, yo'qolib borayotgan temuriylar sulolasining davom etishiga sabab bo'ldi. Boburning nabirasi Buyuk Akbarning hukmronligi Hindistonning yuksalish davri bo'ldi. Boburiylar sulolasidan bo'lgan Avrangzeb (1707) vafotidan so'ng imperiyaning inqirozi tezlashdi. Boburiylar sulolasining so'ngi vakili Bahodirshoh Zafar davrida mamlakatda ko'tarilgan sipohiylar isyoni, uni taxtdan ketishiga va (1861) vafoti tufayli Angliya Qirolichasi Viktoriya (1877) o'zini Hindiston malikasi deb e'lon qilganidan so'ng Boburiylarning Hindiston taxtiga bo'lgan huquqlari bekor qilindi. Bu voqea natijasida Angliya nafaqat boburiylar saltanatiga, balki besh asr oldin yengilmas mo'g'ullarning vakillari qarshisida Movarounnahr hukmdori deb e'lon qilingan Amir Temur asos solgan Temuriylar sulolasiga chek qo'ydi.

Sohobqiron Amir Temurning vasiyati: "Emdi Pirmuhammad Jahongirkim, valiahd qilibmen va o'rnumga qoyim-maqom etibmenkim, Samarqand viloyati aniki bo'lg'ay. Va istiqloq va tamkin bila o'lturub, mamolik tadbiridin va cherik va ra'iyat xolidin xabardor bo'lg'ay. Sizlar, kerakkim, anga



mute' bo'lub, ittifoq bila aning ishig'a mashg'ul bo'g'aysiz, to olam buzulmag'ay va musulmonlarga tashvish va zahmat bo'lmag'ay. Va necha yillik sa'yi qilg'onim zoe' bo'lmag'ay" So'nggi nafasdan oldin Amir Temur shu vasiyatnomani ko'paytirib, uning nusxalarini saltanatning barcha shahzodalari, amir va noiblariga jo'natishlarini talab qilgan.[2:189]

Hazrati Amir Temur Sohibqironning hukmdorlik faoliyatlarining asosiy maqsadi insonlarning manfaatlarini, el-yurt tinchiligi va adolat bo'lgan, bu orqali esa "Temuriylar davri uyg'onish madaniyati" deb nomlangan madaniyatga asos solingan.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yunus O'g'uz – Amir Temur. - Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2018.
2. Lyusyen Keren – Amir Temur saltanati. – Toshkent: "O'zbekiston", 2018.



## TARIX DARSLARIDA QO'LLANILADIGAN INTERFAOL O'YINLAR

**Mirkamolava Xolida Tursunpo'latovna**

Namangan viloyati Uychi tumani

5 maktab tarix fani o'qituvchisi

+99893 926 28 75

**Annotatsiya:** ushbu maqolada tarix fanlarida qo'llaniladigan umumpedagogik texnologiyalar, interfaol o'yin texnologiyalari haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Fazoga sayohat, bu kim intellektual o'yini, Menga kerak o'yini

Ishbilarmonlik yoki rol (vaziyatli) o'yinlar – muammoli vazifaning bir turidir. Faqat bu o'rinda, matnli material o'rniga o'quvchilar tomonidan roller o'ynaladigan hayotiy vaziyat sahnalashtiriladi. Bosqichlari: vaziyatni tushuntirish, mos rollarni bo'lib berish, maqsad va vazifalarni tushuntirish; o'yin davomida o'quvchilarning hatti-harakatlarini kuzatib borish; o'quvchilarning hatti-harakatlari orqali ularga bilim olishlariga, ma'lum malaka va ko'nikmalarni egallashlariga 21 imkoniyat yaratish; o'yin natijalarining tahlili; o'yin natijalarini real hayotiy hodisalar bilan taqqoslash.

### Boshqalarni o'qitish orqali o'rganish usuli

Bu usulda ta'lim oluvchilar belgilangan mavzu yoki qo'yilgan muammo bo'yicha bir – birlariga axborotlarni almashadilar va o'z bilganlarini boshqalarga o'rgatadilar.

### Juft-juft muloqot

Biror mavzu bo'yicha yonma-yon o'tirgan o'quvchilarni o'zaro muloqotga chorlash; o'zaro fikr almashish va ularni ba'zilarini tinglash.

“Fazoga sayohat”. Bu o'yin asosan yangi sinfdagi, begona auditoriyaga moslashish uchun o'tkaziladi. O'quvchilarga fazoga chiqish uchun imkoniyat berildi, lekin ularga faqat bir dona buyum olishga ruxsat beriladi. Uquvchi mantiqan o'ziga mos buyumni topishi kerak, topgunicha o'yin davom etadi. Masalan: Nodira “sen qanday buyum olasan” kabi savollar bilan murojaat qilib borasiz, Olma olmoqchiligini aytsa, bu unga mumkin emasligini aytasiz, yordam tariqasida “Olmani Obidjon olishi mumkin” kabi so'zlarni aytishingiz mumkin, tushungan bo'lsangiz har bir o'quvchi o'z ismi bosh harfi bilan boshlanuvchi buyumni olishi kerak. O'quvchilar o'yin mohiyatini anglaguncha o'yinni davom ettirasiz.


“Bu kim” intellektual o'yini. O'tilgan mavzu yuzasidan olimlar suratlaridan 5 tasini tanlab olamiz. Har bir olim haqida 5 ta ma'lumot yozamiz, har biri alohida qog'ozga, hosil bo'lgan 25 ma'lumotni 5 nusxada konvertga solib, guruhlariga tarqatiladi. Har bir guruh o'zi tanlab olgan olim haqidagi ma'lumotlarni tanlab olishlarini vazifa qilib beriladi.

Olimpiada mash'alasi.

Gretsiya mavzusi bo'lganligi uchun Olimpiada mash'alasi o'yinini olamiz. Mash'ala yasaymiz va uni har bir guruh bir ma'lumotni aytadi va mash'alani narigi guruhga uzatadi. Mash'alani uzoq ushlab turish mumkin emas, 10 soniyada ma'lumot ayta olmagan guruh o'yinni tark etadi. Maksimal 10 ball.

### “Menga kerak “ o'yini

Bu o'yinda alohida aslahalar suratlari beriladi. Guruhlarga a'zolar bu aslahalarni qaysi ilohga tegishligini topishi kerak



Guruhlar o'z ishlarini yakunlagach xudolar suratining to'liq tasviri beriladi va tekshiriladi



Har bir pedagog shuni doim esda tutishi kerakki, dars o'quv tarbiya jarayonining asosiy formasidir. Hozirgi zamon tarbiyasining barcha jarayonlari o'quvchilarni mustaqil fikrlashga va mustaqil ijod qilishga o'rgatishdan iboratdir. Biz o'qituvchilar dars jarayonida birinchi navbatda o'quvchilardan fanlardan chuqur va mustahkam bilim berish bilan birga, ularda bilimga qiziqishni, mehnat qilishga ehtiyojni tarbiyalab borishni ko'zda tutamiz.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdukarimov H., O. Suvonov. Umumiy pedagogika: texnologiya va amaliyot. – T.: o'quv-metodik qo'llanma. 2012
2. Bo'ronova Sh. Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish. Uzlüksiz ta'lim. 2004. №3, 23-28 b.



## BUYUK IPAK YO'LINING QAYTA TIKLANISHI VA AHAMIYATI

**Egamberdiyeva Arzigul**

Xonqa tumani 29- son maktabning  
tarix fani o'qituvchisi

**Annatsiya:** Ushbu maqolada Buyuk ipak yo'lining Markaziy Osiyo va Yevropa davlatlari uchun ahamiyatli jihatlari aytib o'tilgan. Va Buyuk ipak yo'lida joylashgan xalqlarning iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlari ahamiyati aytilgan.

**Kalit so'zlar:** Buyuk ipak yo'li, Markaziy Osiyo, YUNESKO, trassa, savdo yo'li, iqtisodiy yaqinlik, madaniy rivoj

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida tashkil topgach, Markaziy Osiyo va shu qatorda Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari bilan teng asosda iqtisodiy-madaniy aloqalarni olib borishga kirishdi. Bu esa qadimdan boshlab xalqlar o'rtasida katta ahamiyatga ega bo'lib kelgan, ammo keyinchalik o'z qimmatini yo'qotgan "Ipak yo'li"ni qayta tiklashni taqozo etardi.

Savdo trassasi atrofida joylashgan davlatlar bilan aloqalarini qayta tiklashga bel bog'ladilar. 1990-yil oktyabr oyida Samarqandda YUNESKO ishtirokida "Qadim va o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda buyuk ipak yo'lining vudjudga kelishi va rivojlanishi" mavzusida xalqaro seminar o'tkazildi. Bundan keyingi yillarda esa turli mavzularda "Ipak yo'li"ga bag'ishlangan xalqaro uchrashuvlar, konferentsiyalar o'tkazildi. Bu esa mustaqil respublikamiz tomonidan qaror qabul qilinishi va shu asosda qo'shni xalqlar bilan iqtisodiy-madaniy aloqalarni rivojlantirish uchun qadimgi "ipak yo'li"ni qayta tiklanish uchun keng miqyosda ishlar boshlanishga olib keldi.

O'zbekistonning milliy istiqbolga erishuvi va o'z mustaqil davlatchiligiga ega bo'lishi uning oldiga keng istiqbol ufqlarini ochib berdi. Mustaqillik tufayli O'zbekiston yangidan yuz ochib, jahon afkor ommasining nigohiga tushdi. Ayni chog'da u BMTning teng huquqli a'zosi sifatida turli ijtimoiy tuzumdagi davlatlar bilan o'zaro foydali, manfaatli asoslarda hamkorlik qilish, aloqalar bog'lashga muvaffaq bo'ldi. Ayniqsa bunda Buyuk ipak yo'li an'alarini yangidan tiklash borasida hozirda jahon miqyosida olib borilayotgan davlatlararo harakatda O'zbekistonning alohida tashabbus ko'rsatayotganligi boisi ham mana shundandir. Zero, qadimdan Sharq bilan G'arbni bir-biriga bog'lagan, xalqaro savdoning qaynoq, tutash nuqtasi hisoblangan O'zbekiston hududi va uning qadimiy shaharlari bugun ham mustaqil davlatimizni keng xorijiy davlatlar bilan bog'lovchi muhim vosita rolini o'ynamog'i ayni muddaodir. Shu boisdan ham mustaqil O'zbekiston Buyuk ipak yo'li an'alarini butun choralar bilan tiklash va rivojlantirishga alohida ahamiyat berib kelmoqda. Shuningdek, YUNESKO rahbariyati bilan hamkorlikda «Ipak yo'limuloqot yo'li» mavzusida o'tkazilayotgan amaliy tadbirlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonning so'nggi paytlardagi faol xatti-harakatlari Sharq va G'arbgga hamda Janubga bevosita chiqish uchun qulay yo'llarga ega bo'lish, o'z mahsulotlarini jahon bozoriga olib chiqish va davlatlararo keng muloqotlarga erishishga qaratilgan. O'zbekiston o'z milliy manfaatlarini ustivorligidan kelib chiqib, dunyoga chiqishga, xalqaro bozor uchun raqobatbardosh mahsulotlar, mollar ishlab chiqarishga hamda G'arb bilan Sharq o'rtasida azaldan davom etib kelgan muhim vositachilik - ko'priklilik rolini o'ynashga faol intilmoqda. U shu olijanob maqsadlar yo'lida faol izlanishlar olib bormoqda. Bu esa O'zbekistonning xalqaro maydondagi pozitsiyasini yanada mustahkamlab, uning nufuzi va obro'sining ko'tarilib borishga xizmat qiladi.

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida tashkil topgach, Markaziy Osiyo va shu qatorda Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari bilan teng asosda iqtisodiy-madaniy aloqalarni olib borishga kirishdi. Bu esa qadimdan boshlab xalqlar o'rtasida katta ahamiyatga ega bo'lib kelgan, ammo keyinchalik o'z qimmatini yo'qotgan "Ipak yo'li"ni qayta tiklashni taqozo etardi.

Savdo trassasi atrofida joylashgan davlatlar bilan aloqalarini qayta tiklashga bel bog'ladilar. 1990-yil oktyabr oyida Samarqandda YUNESKO ishtirokida "Qadim va o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda buyuk ipak yo'lining vudjudga kelishi va rivojlanishi" mavzusida xalqaro seminar o'tkazildi. Bundan keyingi yillarda esa turli mavzularda "Ipak yo'li"ga bag'ishlangan xalqaro uchrashuvlar, konferentsiyalar o'tkazildi. Bu esa mustaqil respublikamiz tomonidan qaror qabul qilinishi va shu asosda qo'shni xalqlar bilan iqtisodiy-madaniy aloqalarni rivojlantirish uchun qadimgi "ipak yo'li"ni qayta tiklanish uchun keng miqyosda ishlar boshlanishga olib keldi.

"Xalqimiz tarixi va madaniyati qadimiydir, - deydi birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov



o'zining SHveysariyaning Altendorf shahrida O'zbekiston Savdo uyini ochish chog'ida so'zlagan nutqida, - Bizning mamlakatimiz, xususan uning Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Farg'ona kabi go'zal shaharlari orqali Buyuk ipak yo'li o'tgan.

Bu yo'l Osiyo bilan Yevropa o'rtasida ishonchli madaniy va savdo ko'prigi bo'lib xizmat qilgan. Hozir biz shu qadimiy Ipak yo'lini tiklash va uni zamonaviy mazmun bilan to'ldirish uchun butun kuch-g'ayratimizni sarflaymiz."

Akademik A.Asqarov uzoq vaqtlar davomida o'z ahamiyatini yo'qotmagan "Ipak yo'li"ni baholar ekan: "Bugungi kunning asosiy vazifasi bobokalonlarimiz qadimlardan ipak yo'li tufayli G'arb va Sharqqa, Janub va SHimolga chiqish imkoniyatini qo'lga kiritar ekanlar, savdo madaniyati bobida, ishbilarmon sifatida jahonga mashhur bo'lgan ekanlar, bu ibratli tarixiy merosni tiklash va rivojlantirish kerak" deydi. Xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda O'zbekiston uzining transport aloka yullari muammolarini xam xal kilmokda. Bu avvalo mamlakatimizning Tejen-Seraxs-Mashxad va Pekin-Istambul urtasidagi "Transosiyo" bosh temiryo'li kurilishida katnashuvi. O'zbekiston Kaspiy dengizi soxilidagi Oktov bandargohini ta'mirlashda, bevosita Xitoy va Pokiston bilan bog'lanishga imkon beruvchi Andijon-O'sh-Irkishtom-Kashkar avtomobil yo'li kurilishi, shuningdek Hind okeaniga olib chiquvchi Termiz-Xirot-Karachi trassasi kabi kurilishlarning ishtirokchisidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Хўжаев А. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2007.
2. Ртвеладзе Э.По Великому шелковому пути. – Алма-Ата: КРИСТАЛ-реклама, 1991.



## TARIXIY ATAMALAR ISHTIROKIDAGI “JUFTINI TOP” MASHQINI SCRATCH PLATFORMASIDA DASTURLASH VA TARIX DARSLARIDA FOYDALANISH

G'aybullayeva Aziza,  
Navoiy viloyati Qiziltepa tuman  
27-umumta'lim maktabi  
tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada muallif maktablarda o'qitiladigan tarix fanidagi mavzularda o'rganilishi kerak bo'lgan tarixiy atamalar bo'yicha yaratilgan metod va mashqlar oflayn tarzda ekanligi va bu o'z navbatida o'rganuvchilar uchun bir qator qiyinchiliklar tug'dirishi mumkinligini aytdi. Shu bilan birga maqolada darslik mavzularda uchraydigan tarixiy atamalarni tez va oson o'rganadigan, dars samaradorligini oshiradigan, o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmasini shakllantiradigan «Juftini top» mashqi haqida o'z tavsiyalarini bergan.

**Kalit so'zlar:** atama, interfaol metod, veb-ilova, integratsiya, scratch, platforma

O'zbekistonda ta'lim sohasida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, ta'lim mazmunini yangilash va takomillashtirishga oid chiqarilayotgan qarorlar ta'limni hayot bilan bog'lashni, o'qitish samaradorligini oshirishni, tez sur'atlar bilan taraqqiy etib borayotgan jamiyat uchun barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishni talab qiladi.

Ta'lim samaradorligini oshirishda mashg'ulotlarni turli xil interfaol metod va mashqlar yordamida tashkil etish muhim hisoblanadi. Interfaol metodlar deganda - ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Darsda qo'llanilgan interfaol metodlar o'quvchilarning materialni tez, oson va puxta o'zlashtirishiga xizmat qilishi bilan birgalikda, ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi.

Bilamizki, tarix fanining har bir mavzusida bir nechta tarixiy atamalar qatnashadi. Bularga o'qituvchilar tomonidan yetarli ma'lumotlar berilib, ularning tub mohiyati tushuntirilib berilsa ham, bu atamalar va ularning ma'nolarini o'quvchilar eslab qolishlari qiyinroq bo'ladi. Shuning uchun ham atamalar bilan ishlashni shunchaki og'zaki tarzda olib bormasdan, turli xil mashqlar yordamida

o'tkazilsa va u o'quvchilar uchun qo'llashga qulay bo'lsa, natija samarali bo'ladi. Atamalar bo'yicha darsda qo'llash mumkin bo'lgan va o'quvchi mustaqil shug'ullanadigan mashqlar bor, ularning boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan variantlarini ham ko'rishimiz mumkin, ammo ular oflayn tarzda, ya'ni foydalanish uchun dasturiy ta'minotni kompyuterga o'rnatish lozim. Men tavsiya qilmoqchi bo'lgan veb-ilova onlayn tarzda ishlaydi, bunda internetga ulangan kompyuter yoki mobil qurilma bo'lsa kifoya. Hozirgi kunda bunday qulaylik har bir maktab yoki o'quvchida bo'lishini hisobga olib, bu mashqni ko'pchilik o'qituvchilar va o'quvchilar bemaol foydalanishlari mumkin.

Natijada o'quvchida ko'rib, eshitib, amalda bajarib, eslab qolishi oson bo'ladi. Shu bilan birgalikda bunday dars o'quvchida qiziqish va e'tiborni kuchaytiradi.

Quyida 6-sinf tarix darsligida «Qadimgi Misr dini» mavzusidagi atamalar va ularning ma'nolarini mustahkamlash uchun o'quvchilar «Juftini top» mashqidan foydalanishi mumkinligi ko'rsatib o'tilgan.



1-rasm

2-rasm



**Qo'llash usuli:** Elektron doska yoki kompyuterdan (hatto telefon) [scratch.mit.edu](http://scratch.mit.edu) veb-saytiga kiriladi. Fan va mavzu tanlanib, topshiriqni bajarish boshlanadi. Demak, jadvallarda tasavvur qiling, 10 ta atama va uning ma'nolari kataklarda aralash tarzda berilgan (1-rasm).

O'quvchi xohlagan atamani tanlab, uning ustiga bosadi, so'ngra o'sha atamaning mos ma'nosini topib, uning ustiga ham bosishi kerak bo'ladi (masalan, kohinlar - xudolar va odamlar o'rtasidagi vositachi). Natijada, o'quvchi atama va uning ma'nosini to'g'ri tanlay olsa, ular bir xil rangga kirib, katakdagi so'zlar yo'qolib ketadi va foizga ega bo'ladi (2-rasm). Aksincha, atamaga mos ma'noni noto'g'ri tanlasa, kartaklardagi so'zlar yo'qolmasdan, xato ekanligini bildiruvchi musiqa yangrab, foiz olib tashlanadi. Agar katakdagi barcha atamalar va ma'nolar to'g'ri tanlansa, topshiriq to'liq bajarilgan bo'lib, 100 % natija ko'rsatish mumkin. Mashq atamalarni oxirigacha mos ma'nolarini topib tugatgach, guruh yoki yakka o'quvchining qancha foiz to'plagan, nechta to'g'ri va nechta noto'g'ri javob berganini ko'rsatishi bilan yakunlanadi. O'quvchi yoki guruh to'plagan foiz avtomatik tarzda ko'rsatiladi. Bu mashqni qo'llashdan maqsad o'quvchilarning faolligi oshadi, darsga yanada qiziqishlarini orttiradi va mustaqil ishlash ko'nikmasi shakllanadi.

Shu bilan birgalikda o'quvchilar bo'sh vaqtlarida ham topshiriqni mustaqil ravishda bajarib, o'z bilimlarini mustahkamlab borishlari mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. A.S.Sagdullayev, V.A.Kostetskiy. Qadimgi dunyo Tarixi 6-sinf darsligi. Toshkent 2017-yil
2. H. T. Omonov va boshqalar. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent 2009-yil
3. N.N.Azizxodjayeva. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent 2006-yil



## ILK O`RTA ASRLAR GEOGRAFIYASI VA ARABLARNING O`RTA OSIYOGA ISTILOSI DAVRI TARIXIY GEOGRAFIYASI.

**Ibrohimova Zilola Raxmatovna**

Buxoro viloyati G`ijduvon tumani  
24-umumiy o`rta ta`lim maktabi tarix fani o`qituvchisi  
(+998912451372)

**Ibrohimova Farida Raxmatovna**

Buxoro viloyati G`ijduvon tumani  
24-umumiy o`rta ta`lim maktabi geografiya fani o`qituvchisi  
(+99891 403 07 90)

**Annotatsiya:** O`rta Osiyoda V asrlarga kelib yerga egalik munosabatlari shakllandi. Bu feodal ishlab chiqarish munosabatlari, deb ham ataladi. Kushon davlati inqirozga uchragach, ko`plab mustaqil mulklar paydo bo`ldi

**Kalit so`zlar:** Yerga egalik, tarixiy geografiya, Yettisuv, sharqiy Turkiston, Eftaliylar imperiyasi, Xorazm, Amudaryo, Kidariylar, Sosoniylar.

O`rta Osiyoda V asrlarga kelib yerga egalik munosabatlari shakllandi. Bu feodal ishlab chiqarish munosabatlari, deb ham ataladi (“feod”-er, mulk). Kushon davlati inqirozga uchragach, ko`plab mustaqil mulklar paydo bo`ldi. Buxorodagi buxoruxudod, Chog`oniyondagi chog`onxudod, Toshkentdagi to`dik, Iloqdagi dehqon, Samarqanddagi ixshid, Termizdagi termizshoh, Farg`onadagi ixshid, Vardanzidagi vardanxudod mulklarining paydo bo`lishi feodal munosabatlar bilan bog`liq edi. Ilk o`rta asrlarda O`rta Osiyo tarixiy geografiyasining o`zgarishi faqatgina feodal munosabatlar bilan bog`liq bo`lmay, aholi migratsiyasi bilan ham bog`liq edi. IV asr o`rtalarida O`rta Osiyo hududiga Yettisuv va sharqiy Turkistondan ko`chmanchi xiyoniylar kirib keldilar. va IV asrning 2 yarmida Sirdaryodan to Amudaryogacha bo`lgan hududda o`z davlatini barpo etdilar. V asrning 20 yillarida esa Xorazm va Amudaryo xavzasiga sharq tomondan yana bir ko`chmanchilar, kushonlarning avlodi bo`lmish toxarlar kirib keldi. Ular So`g`d erlarini tez orada ishg`ol etishib Kidariylar (hukmdor nomidan kelib chiqqan) davlatiga asos soldilar. Balx shahri kidariylarning poytaxtiga aylandi. Kidariylar o`z hududlarini janub tomonga kengaytirishga uringanligi uchun sosoniylarning asosiy dushmanlariga aylandi. Kidariylar o`z hududlarini janub tomonga kengaytirishga urunganligi uchun sosoniylarning asosiy dushmanlariga aylangan.

Keyinchalik Tolikon yaqinida Kidariylar va Sosoniylar o`rtasida chegara belgilangan (456 yilgijangdan keyin kidariylar tushkunlikka yuz tutganlar).

V asr o`rtalarida o`rta Osiyoga yana bir ko`chmanchi qabila-eftallar shimol tomondan kirib keldilar va kidariylarni janubga-Hindistonga ketishga majbur qildilar. Vaxshunvor boshchilik qilgan Eftal davlati birin-ketin Chog`oniyon, Toxariston va Badaxshonni zabt etadi. Eftallar Tolikon yaqinidagi chegaradan ham o`tib VI asr boshlarigacha qobul, Panjob, qarashar, Kuchu, qoshg`ar va Xo`tanni ham zabt etib O`rta osiyo, Sharqiy Eron, Shimoliy Hindiston va Sharqiy Turkistonni birlashtirgan qudratli davlat tuzadilar. Eftallar davlatining tabiiy geografiyasi qanchalik keng va xilma-xil bo`lsa. Shunga mos ravishda aholisi ham xilma-xil edi. Orolardan qoshg`argacha, Balxashdan to Hindistongacha bo`lgan ulkan Eftaliylar imperiyasi hududida bir necha etnoslar istiqomat qilganlar. Etnoslarning

xilma-xilligi, aholi ijtimoiy kelib chiqishining turli-tumanligi xo`jalikka ham ta`sir etmay qolmadi. Ko`chmanchilarning asosiy mashg`uloti chorvachilik edi. Ayniqsa yiliqichilik qadimdan mashhur bo`lib kelgan, Farg`onada yaxshi rivojlangan edi.

V asrlarda yerga egalik qilish (yoki feodalizm)ning asosiy o`ringa chiqa boshlashi eftaliylar davlati uchun ham ahamiyatli edi. Bir tomondan tushkunlikka uchragan kushon davlatidan qolgan meros: qul mehnatidan foydalanish, quldorchilik davom etib kelayotgan bo`lsa, ikkinchi tomondan mulkdor tabaqa vakili “dehqon” va ularga qaram bo`lgan yersiz, kambag`al “kadivar” munosabatlari shakllandi. Aholining muntazam ko`payib borishi, hunarmandchilikning rivojlanishi va tashqi savdoning o`shishi bir-biriga bog`liq ravishda oziq ovqat, umuman qishloq xo`jaligi mahsulotlari, xom ashyoga bo`lgan ehtiyojini kuchaytirdi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 7-8-sinf O`zbekiston ta`rixi darsliklari
2. 6-8-sinf Geografiya darsliklari
3. Internet ma`lumotlari



## JADIDCHILIK HARAKATI VA UNING AHAMIYATI

**Kariyeva Anaxon**

Urganch olimpia zahiralari  
kolleji tarix fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jadidchilik harakati va uning mohiyati aytib o'tilgan, "Usuli jadid" maktablarining vujudga kelishi va uning ta'limni rivojlantirishdagi o'rni keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** jadid, usuli savtiya, isloh qilish, Turon, Usuli jadid, Turkiston muxtoriyati

Vatanimiz mustaqillikka erishgach, ijtimoiy-siyosiy hayotning hamma jabhalarida: o'zlikni anglash, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarni chuqur idrok etish va xalqqa yetkazish, yoshlarni Vatanga, xalqqa muhabbat ruhida tarbiyalash borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Ma'naviy hayotni yuksaltirishda hukumat tomonidan uzoqni mo'ljallab ishlab chiqilgan maxsus dasturlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Ayniqsa, iqtidorli yoshlarning ta'lim-tarbiyasi, dunyoning taraqqiy etgan oliy o'quv yurtlariga yuborish davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masalalar sirasiga kirdi. Jadid namoyondalari ham yoshlar tarbiyasi masalasiga hayot-mamot masalasi deb qaradilar. Jadidchilik harakatining tamal toshi usuli jadid maktablaridir. Bu — jadidshunoslar tomonidan yakdil e'tirof etilgan fikr. Bu harakatning asl maqsadi millatning o'zligini tanitish, ijtimoiy-siyosiy tuzumni tubdan isloh qilish, istiqloлга erishish edi. Mahalliy maktablarni tubdan isloh qilish, jahon talablariga javob bera oladigan maktablar, oliy o'quv yurtlari tashkil qilish jadid mutafakkirlarining birlamchi vazifasiga aylandi. Jadid pedagoglari ibtidoiy maktablarni "usuli savtiya" ("tovush usuli") metodi asosida qayta tiklash masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tardilar: dastlabki alifbolar, aniq fanlar bo'yicha darsliklar, o'qish kitoblarini yaratdilar. Gubernatorlik ma'murlari, mutaassib ulamolar qarshiliklarini yengib, zamon talablariga javob bera oladigan o'qituvchi — kadrlar jamoasini tarbiyalab yetishtirdilar. Ularning bunday faoliyati keskin kurashlar, ta'qib va tazyiqlar jarayonida kechdi.

Jadidchilik, mohiyat e'tiboriga ko'ra, maorifni tubdan isloh qilishdan boshlangan bo'lsada, mazkur davrda yuzaga kelgan har bir ijtimoiy-siyosiy hodisa jadidlar ta'siri doirasida bo'lgan. To'la ishonch bilan aytish kerak, usuli jadid maktablarini ochish zaminida ham siyosiy masala — istiqloл, millatni mustamlaka zulmidan ozod qilish, taraqqiy topgan, farovon millatlar qatorida ko'rish g'oyasi hukmron edi. Shuning uchun ham sho'rolar hukumati ularga qarshi ham jismonan, ham ma'nan siyosat yurgizdi, yigirma yil ichida ularning deyarli hammasi qatag'on qurboni bo'ldilar.

Jadidchilik harakatini o'rganishning yana muhim jihati shundaki, jadidlar millat va Vatan taqdiri, istiqloли uchun kurash olib bordilar, ular milliy hukumat — "Turkiston muxtoriyati"ni vujudga keltirdilar, ammo millat uni saqlab qololmadi. Chunki hali millat o'zlikni anglash, milliy uyg'onish bosqichida edi. Buning ustiga, mustaqillik, istiqloл haqida ming xil va'dalar bilan bolsheviklar hukumati o'ta qabih, munofiqona siyosat olib bordi, Turkiston muxtoriyatini oyoqqa turmasdanoq qonga botirdi. Shunday bo'lsada, bu jadid mutafakkirlarining mustamlakadan mustaqillik sari qo'ygan shahdam qadami edi. XX asr oxiriga kelib, xalqimiz jadid mutafakkirlari orzulagan va hatto o'z aziz hayotlarini fido qilgan mustaqillikka erishdi. Bu davr va millat o'zligini anglab yetgan, istiqloлни chuqur idrok etgan va uni mustahkamlay oladigan darajada edi. Shu ma'noda, "usuli jadid" maktablarining maqsad va mohiyatini o'rganish hozirda istiqloл mafkurasini ishlab chiqishda muhim siyosiy va ma'rifiy ahamiyatga ega.

"Usuli jadid" maktablarining vujudga kelishi bilan an'anaviy o'qitish usullarini tubdan isloh qilish, o'qitishning yangi usullarini ishlab chiqish va shu usullar zaminida darsliklar, o'quv qo'llanmalarini yaratish jadidlarning dolzarb masalasiga aylandi. Jadidlarining o'qitish metodlari sohasidagi faoliyatlari, asosan, ularning darslik va o'quv qo'llanmalarida o'z ifodasini topgan. O'qitishda ko'rgazmalilik (Munavvarqori), ifodali o'qish, uning turlari, ularda texnik vositalardan foydalanish (Abdulla Avloniy, Xamza), og'zaki va yozma nutq o'stirish kabi usullari (Maxmudxo'ja Behbudiy va Abdurauf Fitrat) o'qitish kabi masalalar ham ishlab chiqildi.

Jadidlar faoliyatida yoshlarni «Turon», «Turkiston» nomlari bilan atalmish ona-Vatanga, millatga muhabbat ruhida tarbiyalash g'oyasi yetakchilik qildi. Bu yerli millat bolalari uchun ochilgan rus va rus —tuzem maktablarida o'zga millat, o'zga vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash ustivor g'oya bo'lib turgan bir vaqtda, bunday tarbiya hal qiluvchi ahamiyatga ega edi.



Ushbu bitiruv malakaviy ishi yuqorida tilga olingan masalalarni ishlab chiqishga qaratilganligi bilan ham dolzarb hisoblanadi. Bu masalalarni yoritishda, asosan, birlamchi manbalar — jadid mutafakkirlarining qo'lyozma, bosma asarlari, darsliklari va o'sha davr vaqtli matbuoti materiallaridan keng foydalanildi. Jadidchilik harakatining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, «Usuli jadid» maktablari tarixi, shakllanishi, rivojlanish jarayonlari va pedagogik texnologiyasi masalalari shu kungacha maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida kompleks ravishda o'rganilgan emas. Ushbu masalaning ayrim jihatlari Xamza, A.Avloniy, Siddiqiy, Abduqodir Shakuriy kabi jadid mutafakkirlari tomonidan o'rganildi.

XX asrning 80-yillari o'rtalaridan boshlangan qayta qurish jadidchilik harakati haqida cheklangan holda bo'lsa ham ba'zi haqiqatlarni aytish imkonini berdi. Shu nuqtai nazardan, 1987 yilda O'zbekiston FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutida, 1989 yilda O'zFA va Yozuvchilar uyushmasi hamkorlikda Turkistonda jadidchilik harakatiga bag'ishlangan sobiq ittifoq miqyosida ilmiy anjumanlar o'tkazildi. Ushbu yig'ilishlarda jadidchilik harakatini kompleks ravishda ijtimoiy-siyosiy fanlar bo'yicha o'rganish kerakligi takidlandi.

Faqat Vatanimiz mustaqillikka erishgandan keyingina ma'naviy-ma'rifiy hayotimizda ham tub sifati o'zgarishlar amalga oshirildi: markazdan kelgan andozalar asosida emas, bor haqiqatni aytish, o'z tariximizni o'zimiz yaratish imkoniyatiga ega bo'ldik. Jadidchilik harakati, uning tub mohiyati, buyuk rahnamolari va namoyandalari haqida keng ko'lamda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda .

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Йўлдошев Ж., Хасанова С. Жадид тарбияшунослиги асослари. - Т.: Ўқитувчи. 1994. —Б. 128
2. «Халқ таълими» журнали, 2004 й., 5-сон, 15-бет.



## TURKIY BITIKLAR VA ULARNING O'ZBEK XALQI QADIMIYATINI O'RGANISHDAGI O'RNI MAVZUSINI YANGI PEDOGOGIK VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARI ASOSIDA O'QITISH

**Sharipova Hokima Yahyoyevna**

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani

24-umumiy o'rta ta'lim maktabi

tarix fani o'qituvchisi (+99890 510 20 11)

**Maxmudova Aziza Ulug'bek qizi**

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani

24-umumiy o'rta ta'lim maktabi tarbiya

fani o'qituvchisi (+99891 332 20 96)

**Annotatsiya :** Turkiy bitiklar va ularning o'zbek xalqi qadimiyatini o'rganishdagi o'rni mavzusini yangi pedogogik va axborot texnologiyalari asosida o'qitishda ham ta'lim mazmuni asosan o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

**Kalit so'zlar:** Turkiy bitiklar, o'zbek xalqi qadimiyati, axborot texnologiyalari, o'qituvchining ijodkorligi, izlanuvchanligi, o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik

Turkiy bitiklar va ularning o'zbek xalqi qadimiyatini o'rganishdagi o'rni mavzusini yangi pedogogik va axborot texnologiyalari asosida o'qitishda ham ta'lim mazmuni asosan o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda, inter(o'zaro) faol usul O'quvchilarga dars jarayonini yaxshi tashkil etishga qulay muhit yaratiladi. O'quvchilarning o'zaro fikr almashishlariga imkon beriladi. O'zaro axborot olish va berish uchun sharoit tug'diriladi. Yechimini kutayotgan masalalarni hamjihatlikda muhokama etadilar, yechadilar. Vaziyatdan chiqishda hamkorlikda yechim topadilar. Olgan axborotlari asosida bilimlarini bir-birlariga namoyish etadilar. Bir-birlaridan ilhomlanib, ruxiy qoniqish hosil qiladilar. Bir-birlarini tushunib, balki qiziqish paydo bo'lib, vaqt o'tganini bilmay qoladilar. Har bir ishtirokchi ta'lim mazmunini mualliflardek his etadilar. Ta'lim mazmunini to'la o'zlashtirishga erishadilar.

Turkiy bitiklar va ularning o'zbek xalqi qadimiyatini o'rganishdagi o'rni mavzusini o'qitishning Interfaol metodlari deganda, hozirda yangicha metodlarni yoki innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tadbiiq etish haqida gap borganda interfaol usullarning o'quv jarayonida qo'llanilishi tushuniladi.

- Interfaollik bu o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni bunda o'quv-biluv jarayoni o'zaro suxbat tariqasida, dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o'quvchi-o'quvchining o'zaro muloqotiga asosan kechadi.

- Interfaollik-o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, u o'quvchi va o'qituvchi muloqotlarida sodir bo'ladi. Interfaol usulning bosh maqsadi o'quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin fikr yuritishiga muhit yaratishdir.

Turkiy bitiklar va ularning o'zbek xalqi qadimiyatini o'rganishdagi o'rni mavzusini o'qitishning bir soatlik dars namunasini bizga ko'proq ma'qul bo'lgan aqliy hujum usulida taqdim etmoqchimiz.

Darsni interfaol metodlarda tashkil etishning qanday afzalliklari mavjud

O'qitish mazmuni yaxshi o'zlashtirishga olib keladi.

O'z vaqtida o'quvchi-o'qituvchi-o'quvchilar orasida ta'limiy aloqalar o'rnatiladi. O'qitish usullari ta'lim jarayonida turli xil ko'rinishlardan kechadi. (yakka, juft, guruh, katta guruhlar). O'quv jarayoni o'quv ehtiyojini qondirish bilan yuqori motivasiyaga ega bo'ladi.

- O'zaro axborot berish, olish, qayta ishlash orqali o'quv materiali yaxshi esda qoladi.
- O'quvchida o'zaro muloqotga kirishish, fikr bildirish, fikr almashinish ko'nikmalari shakllanadi.

- O'quv jarayonida o'quvchining o'z-o'ziga baho berishi, tanqidiy qarashi rivojlanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Таълим тараққиёти. Ўзбекистон Республикасининг Халқ таълими вазирлигининг Ахборотномаси 2-Махсус сон, 1999 йил. Умумий ўрта таълимнинг давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. - Т., "Шарқ", 1999 й. Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини ислох қилиш бўйича меъерий ҳужжатлар. I қисм.- Тошкент, 1998 йил.

2. Йўлдошев Ж., Йўлдошева Ф., Йўлдошева Г. Интерфаол таълим сифат кафолати. Т., 2008, 29 б.

3. Таълим тараққиёти. Ўзбекистон Республикасининг Халқ таълими вазирлигининг Ахборотномаси 2-Махсус сон, 1999 йил 28б.

4. Internet ma'lumotlari



## МАРКАЗИЙ ОСИЁДА ДОНҒИ КЕТГАН ХАТТОТЛАР

**Асроров Козимхон Олимхон ўғли**

(Бухоро ва Самарқанд хаттотлик мактаби хаттотлари мисолида)

Тошкент ислом институти ўқитувчиси ва

Алишер Навоий номидаги

Тошкент давлат ўзбек тили

ва адабиёти университети магистранти

(97) 704-73-77

**Аннотация:** Ушбу мақолада шарқ халқлари маданияти тарихи, Бухоро ва Самарқанд хаттотлик мактаблари китобат санъати ва хат турлари тараққиёти жараёнида муҳим ўрин эгаллаган хаттотлар ҳақида сўз юритилади. Шунингдек, ушбу хаттотлик мактабларида янги хат турларини кашф этган донғи кетган машҳур хаттотлар хусусида ҳам маълумотлар берилган.

**Калит сўзлар:** Каломи шариф, хаттот, хаттотлар, мадраса, маданий ёдгорликлар, китобат санъати, кўлёзма, хаттотлик мактаблари.

Марказий Осиё хусусан, Ўзбекистонни ислом маданияти тарихи борасида ёзма обидалар хазинаси дейиш мумкин. Республикаимизнинг Бухоро, Самарқанд, Хоразм, Фарғона, Тошкент сингари йирик маданий марказларида буюк олимлар томонидан яратилган диний-маънавий ва илмий-маърифий мазмундаги кўплаб кўлёзма манбалар сақланмоқда. Халқимизнинг жўда бой маданий мероси бўлган нодир кўлёмалар, қадимги босма китоблар сони бугунги кунда 100 минг нусхадан зиёд. Шуни ҳам таъкидлаб ўтиш жоизки, аҳоли қўлида эъзозлаб сақланаётган ҳамда авлоддан-авлодга ўтиб келаётган, лекин давлат томонидан рўйхатга олинмаган нодир кўлёмалар ва босма китоблар ҳам оз эмас. Бу кўлёмалар ўз даврининг машҳур хаттот ва котиблари томонидан гўзал ҳолатда кўчирилиб, келажак авлодга муносиб ҳолда қолдирилган. Шу жиҳатдан Бухоро ва Самарқандда фаолият юритган хаттотлик мактабларининг асосини ташкил этган хаттотлар ҳаёти, улар қолдирган мерос ва фаолиятлари дунё эътиборини доим ўзига тортган.

### **Бухоро хаттотлик мактаби хаттотлари**

**Миразд Бухорий.** Машҳур хаттот “*Гўзал кўчирувчи*” номига эга бўлиб, кўлёмаларга олтин зарҳал берувчи музаҳхиблиқдан донг чиқарган<sup>1</sup>.

**Султон Муҳаммад Бухорий.** Настаълик хатида машҳур бўлиб, тарихчиларнинг хати тўғрисида куйидаги байтни келтирадилар: “Бухоро олхўрисига ўхшаш хатингни кўрдиму оғзимнинг суви келди (тўла сувга айланиб кетди)”<sup>2</sup>.

**Мавлоно Солиҳ Бухорий.** Маҳмуд Шабонийнинг шогирди бўлиб, Чигатой шоҳларидан Абдуллоҳон ва Искардархон даврининг машҳур котиби бўлган ҳолда китоб таълифи билан шуғулланган.

Устоз Жаҳонгир Бухорий. “*Ундат ул-мусаввирун*” – “*Бош сувратчилардан*” деган ном олган, машҳур наққош ва рассомлардан устоз Гунгнинг шогирдидир<sup>3</sup>.

**Мирали Хиравий.** Ҳиротда туғилиб ўз фаолиятини Машҳадда давом эттирган машҳур хаттот. Мир Али ўз замонида машҳур хат устаси бўлиб, Хиравийни Убайдуллоҳон 1538 йилда Султон Саид Кўрагон замонида бўлган воқеалар сабабли олимлар, хунармандлар ва санъаткорлардан катта бир гуруҳи билан қўшиб Ҳиротдан мажбуран Бухорога олиб келган.

“*Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан*” асарда куйидагича келтирилади: “*Бухородан унга нисбатан ҳар қанча ҳурмат кўрсатилса ҳам маслакнинг қарама-қаршилиги учун Убайдуллоҳга ҳеч кўнгли исимади. Бироқ гўзал хати туфайли Носириддин Убайдуллоҳ Мир Алини қўлдан чиқармади. Нафис китобларни чиройли ва бадиий хат билан кўчиришга уни мажбур қиларди*”<sup>4</sup>.

Мир Али 1559 йилда вафот этган, у Шайх Юсуфиддин Боҳаздий ёнига дафн қилинган.

<sup>1</sup> Муродов А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Тошкент: Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти, 1971. – Б. 63.

<sup>2</sup> <http://e-tarix-uz.e-bozor.com>.

<sup>3</sup> <http://zarnews.uz/madaniyat/4986-n-bir-asrlik-obida>.

<sup>4</sup> Муродова А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Тошкент: Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти, 1971. – Б. 65.



Қози Нуриллох Шуштарийнинг айтишича, Мир Алининг фарзандлари ва уларнинг болалари Бухорода, баъзилари Ҳиндистонда яшаган<sup>1</sup>.

**Мир Хусайн Куланки Бухорий.** 1538 йилда Султон Саид замонида таваллуд топган. Носириддин Убайдуллох тарафидан санъат ва хунар аҳиллари билан биргаликда Ҳиротдан Бухорога мажбуран олиб келинган. Маҳдий Баёнийнинг ёзишича, “*Маноқиб хунарварон*” муаллифи бир қанча улуғ хаттотларни Мир Али Ҳиравий шогирдларидан деб ҳисоблайди. Жумладан, Мир Хусайн Куланки Бухорода Мир Алининг кўлида тарбия топган, фазли камолга эга бўлиб, Убайдуллохоннинг кўп китобларини кўчирган. Шу кўчирган китобларидан бири “Убайдий” девонидир<sup>2</sup>.

**Муҳаммад Амин Бухорий Халвоий.** Атоқли, номдор хаттот бўлиб, етти қалам билан кўчирувчи, айниқса, насх хатида шуҳрат қозонган. Машҳур Мир Убайд котиб унинг шогирдидир. Ўз даврида бошқалардан юқори турар, халққа танилган кўп гўзал қўлёзмалар қолдирган. Бу кишининг отаси Аваз Бадал халвочилик касби билан шуғуллангани учун “*Халвоий*” деб нисбат берилган. Ҳалвоий 1543 йилда вафот этган<sup>3</sup>.

**Имомиддин Шаҳрисабзий.** Қобилиятли, фозил, айниқса, улуми арабияда (араб тили илмида) моҳир ва турли хатларда кучли хаттотдир. Амир Музаффар уни фитначи дея шубҳа қилиб, асли ватани Шаҳрисабздан Бухоро ёнидаги Мозори Шариф йўлида “Қарий” деган мавзегга кўчиртириб келди. У ердан жой кўрсатиб, Бухорога киришни ман қилди. Музаффардан кейин ўғли Абдул Аҳадхон амир бўлгач, Имомиддин Бухорога киришга муваффақ бўлди. Шу қийинчилик вақтларида тириклиги китобат билан ўтди. Хар ким бирор китобни кўчиртиришни истаса, ўша “Қарий” деган мавзуга юборар эди. Имомиддин тахминан 200 адад китобни кўчириб, хушхат қўлёзмаларни эсдалик қолдирган<sup>4</sup>.

**Мухтор Махмуд.** Настаълик хатида китобат қилган арабий, форсий қўлёзмалар билан шуғулланган тўғри ва хатосиз ёзишда ҳам бошқа котибларга нисбатан биринчилардан бўлган хаттотдир<sup>5</sup>. Туғилиб вафот этган йиллари номаълум.

**Сиддиқжон Куфрий Қўйдарохтий.** Бухорода шуҳрат қозонган иккита Сиддиқжон исмли котиб бор. Бири Сиддиқжон Куфрий Қўйдарохтий, иккинчиси Сиддиқжон Кўкий – Иштихоний. Ҳар бири хаттотликда ўз даврининг машҳурларидан ҳисобланган. Сиддиқжон Қўйдарохтий ўзига хос хат услубини ихтиро қилиб, шу орқали ҳаммага макбул келиб, гўзал ва чиройли хат ёзиш билан машҳур бўлади<sup>6</sup>.

#### **Самарқанд хаттотлик мактаби хаттотлари**

**Аҳмад бинни Умар Ашъас Абу Бакр Самарқандий<sup>7</sup>.** XI аср улуғ хаттотларидан ҳисобланади. Бир қанча муддат Дамашқда туриб, мусҳаф кўчирган.

**Ибн Асокир:** “*Ҳасан ибн Қайсдан эшитишимча, Абу Бакр Самарқандий бирор нусхага қарамасдан, ёддан мусҳаф кўчирар эди. Дамашқ аҳллари билан бир жамоа кишилар унинг ҳақида яхши фикрлар юритар эдилар. Абу Бакрнинг табиати ҳазил мутойибага мойил, мазахчи киши эди*”<sup>8</sup> – деб такидлайди.

**Мулло Муҳаммади ибн Мирзо Даҳбитий Самарқандий<sup>9</sup> (XIX аср).** Самарқанд котибларидан, Алишер Навоийнинг “Ҳазойин ал-маоний” асарини 1583 йилда кўчирган.

**Абдулмўмин ибн Муҳаммад Шариф Самарқандий<sup>10</sup>.** 1840 йилда Алишер Навоийнинг “Ҳазойин ал-маоний” девонини бадиий насталиқ хати билан Самарқанд қоғозига кўчирган.

**Азизуллох Самарқандий.** Самарқанддаги маҳоратли котиблардан бири бўлиб, XV

<sup>1</sup> Абдукодир А. Обидалар жилваси. –Т.: Ўзбекистон, 2001. – Б. 56.

<sup>2</sup> <http://samarkand.uz>.

<sup>3</sup> <http://nnst.uz/matn>.

<sup>4</sup> <http://e-tarix-uz.e-bozor>.

<sup>5</sup> Муродова А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Тошкент: Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти, 1971. – Б. 66.

<sup>6</sup> <https://uz.wikipedia.org>.

<sup>7</sup> Ёкут Ҳамавий. Муъжам ул Булдон 5-жилд, ЎзФАШИ, № 8191, 129-бет.

<sup>8</sup> Муродова А. Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан. – Тошкент: Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти, 1971, – Б. 95.

<sup>9</sup> Фаройиб ус Сиғар, ЎзФАШИ, қўлёзма, № 7499, 205-бет.

<sup>10</sup> Алишер Навоий, “Ҳазойин ул Маоний”, ЎзФАШИ, қўлёзма, № 11444, 664-бет.



асрнинг буюк хайъат олими Мирзо Улуғбекнинг “Зижу Улуғбек” китобини бутун жадваллари билан бирга нафис нахс хати билан кўчирган<sup>1</sup>.

**Мавлоно Муҳаммад Амин**<sup>2</sup>. “*Воҳидул Айн*” (бир кўзлик) номи билан машҳур бўлган хаттот XVII асрда яшаб ўтган. Бухорода Мирзо Улуғбек мадрасасининг қаршисидаги ичи ва ташқариси кошнлар билан ишланган Абдулазизхон мадрасасининг баланд пештоқига бир кўзининг ожизлигига қармай, бадиий сулс хати билан китобасини ёзган хаттот<sup>3</sup>.

**Абдулжаббор Ургутий Самарқандий**. Мовароуннаҳрдаги машҳур насталиқ хатининг ихтирочилари ичидаги 4 кишидан биридир. (Ушбу тўртлик куйидагилар: биринчи хаттотларнинг отаси Мавлавий Соқий Муҳаммад, иккинчиси Сиддиқжон Қўйдарахтий, учинчиси Сиддиқжон Иштихоний, тўртинчиси Абдулжаббор Ургутийдир.)

Хулоса қилиб айтганда, тарихдан аёнки, ҳукмдорлар илм-фан ва маданиятга ҳомийлик қилган юртда ҳамиша маънавият юксалган, ривож топган. Тарихни англаш орқали инсонда ҳаётни, ўзлигини англаш қобилияти шаклланади. Айниқса, буюк аждодларнинг ворислари бўлган, башарият тараққиётига катта ҳисса қўшган миллатга дахлдор инсон қалбида ўтмишини ўрганишга эҳтиёж кучаяди ва уларнинг етук инсон сифатида улғайишида муҳим аҳамият касб этади.

### Фойдаланилган мангба ва адабиётлар рўйхати

1. Муродов А. “Ўрта Осиё хаттотлик санъати тарихидан”. – Тошкент: Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти, 1971.
2. Абдукодир А. “Обидалар жилваси”. –Т.: Ўзбекистон, 2001.
3. Ёкут Хамавий. “Муъжам ул Булдон” 5-жилд, ЎзФАШИ, № 8191.
4. Ғаройиб ус Сиғар, ЎзФАШИ, қўлёзма, № 7499.
5. Алишер Навоий, “Ҳазойин ул Маоний”, ЎзФАШИ, қўлёзма, № 11444.
6. Улуғбек, “Зижу Улуғбек”, ЎзФАШИ, № 2214.
7. Саййид Роқим, “Тарихий Роқимий”, ЎзФАШИ, қўлёзма, № 609.
8. Абдуллаев И., Ҳикматуллаев Ҳ. “Самарқандлик олимлар”. Тошкент: “Фан” нашриёти, 1969.
9. <http://nnst.uz/matn>.
10. <https://uz.wikipedia.org>.
11. <http://e-tarix-uz.e-bozor.com>.
12. <http://zarnews.uz/madaniyat/4986-n-bir-asrlik-obida>.
13. <http://samarkand.uz>.

<sup>1</sup> Улуғбек, “Зижу Улуғбек”, ЎзФАШИ, № 2214, 1-бет.

<sup>2</sup> Саййид Роқим, “Тарихий Роқимий”, ЎзФАШИ, қўлёзма, № 609, 329-бет.

<sup>3</sup> АбдуллаевИ., ҲикматуллаевҲ. Самарқандлик олимлар. Тошкент: “Фан” нашриёти, 1969. – Б. 236.



## “TEMUR TUZUKLARI”-AMIR TEMUR DAVRIDAGI HARBIY SAN’AT TARIXI BO’YICHA MUHIM MANBA

**Кожихметов Науризбай Жарбусинович,**  
Навоий вилояти, Конимех тумани  
4 –урта таълим мактабининг  
тарих фани уқитувчиси

**Annotatsiya:** Buyuk Sohibqiron Amir Temurni yetuk davlat arbobi, mohir sarkarda, ilm-fan homiysi, bunyodkor, adolat va tinchlik tarafdori. Ushbu maqolada sarkarda bizga qoldirgan eng buyuk me’rosi “Temur tuzuklari” kitobining bugungi kundagi ahamiyati haqida so’z boradi

**Kalit so’zlar:** “Temur tuzuklari”, Renessans, F.Shlosser

Amir Temurni Sharq Renessansining rivojiga ulkan hissa qo’shgan shaxs sifatida barchamiz e’zozlaymiz. Uning “Temur tuzuklari”da davlat tizimi, davlatdagi turli lavozimlarning vazifasi, undagi turli toifalar va ularga munosabat, davlatni boshqarishga asos bo’lgan qoidalar, qo’shinlarning tuzilishi, tartibi, uni boshqarish, ta’minlash, rag’batlantirish, qo’shin turlarining tutgan o’rni va o’zaro munosabati kabi masalalar bayon etilgan. Turon xalqlarining harbiy san’ati Amir Temur davriga kelganda o’zining eng yuqori cho’qqisiga yetdi. Sharq olimlari bilan bir qatorda Yevropa davlatlaridagi olimlar ham buni o’z asarlarida e’tirof etganlar. Nemis olimi F.Shlosser o’zining “Jahon tarixi” asarida: “Baxtiyor jangchi, jahongir, uzoq Sharqda qonunshunos bo’lish bilan birga o’zida, Osiyoda kam uchraydigan taktik va strategik bilimlarni ifodaladi”, - deb yozsa, atoqli nemis olimi va tarixshunosi M.Veber: “Temur o’z dushmanlariga nisbatan juda berahm edi, lekin sarkardalik, davlatni boshqarish va qonunchilik sohasida buyuk talantga ega edi”, - deb ta’riflaydi. Amir Temur saltanati nihoyat darajada katta qo’shin va uning ta’minoti tizimiga ega bo’lgan. Eng oliy bosh qo’mondon Temurning o’zi hisoblanib, u bo’lmagan vaqtlarda qo’shinlar ishi yuzasidan noib-bosh amir, amir ul-umaro boshchilik qilgan. “Temur tuzuklar”da ko’rsatilishicha, bu unvonga besh kishi: Badaxshon hokimi Amir Hudaydod, Balx va Hisor hukmdori Amir Joku, shuningdek, Amir Iku Temur, Amir Sulaymonshoh, Amir Temurning kuyovi, orlot urug’idan chiqqan Amir Muyayadlar sazovor bo’lgan. Amir Temur kishilarning birligi, bir bo’lishlari, jipslashuvlari katta siyosiy-huquqiy ahamiyatga ega ekanligini aytadi. “Shijoatli va aql-farosatli er yigitlarni atrofimga birlashtirdim, -deb yozadi “Tuzuklar”da, - Birlik ittifoqlari shunday ediki, barilari go’yo bir tadek edilar. Barchalarining maqsadlari, ra’ylari so’zlari va ishlari bitta edilar. Bir ishni qilaylik, deb qaror qilsalar, tugatmagunlaricha undan qo’l uzmas edilar” Har bir boshliq (amir yoki tumanboshi) uchun unga tegishli qo’shinlarni ta’minlash joyi (shahar, qishloq, viloyat) 3 yilga belgilangan. Bu davr ichida agar aholi boshliqdan mamnun bo’lsa, u bu yerda keying muddatga qolar, aks holda xalqdan olingan ortiqcha narsalarning hammasi undan tortib olinib, 3 yilgacha hech qanday maosh berilmas edi. Soliq olishda ham jismoniy jazo qo’llashni taqiqlagan. U boshliqlardan zulm o’tkazish va tovlamachilik qilishdan o’zlarini tiyishlarini talab qilar, o’z mansabini suiiste’mol qilish ochlik va har xil falokatlariga olib kelishi, xalqni esa o’zga yerlarga qochib ketishga majbur etishini bilar edilar. Amir Temurning fikricha, xalqni talon-taroj qilish davlat daromadining kamayishiga va davlatning qulashiga olib keladi. Ma’lumki, mustaqil, demokratik-huquqiy davlat qurayotgan bizning jamiyatimizda, davlatchilikning oliy mansablari va harbiylarning yo’l-yo’riqlari xususida tasavvurlar endi-endi shakllanib, rivojlanib bormoqda. Ularni takomillashtirishda davrlar sinovidan o’tgan “Temur tuzuklar”iga o’xshagan asarlarga suyanishimiz lozim deb hisoblayman. O’z zamonasi uchun yaxshi texnika, qurol-aslahaga ega bo’lgan qo’shin tuzilishida bir qancha samarali tajriba va nizomlarni yaratadiki, bu ham ulkan mamlakatni barpo etish ishlariga yaqindan yordamlashdi. Sohibqiron o’zidan so’ng harbiy san’at sohasida ulkan meros sifatida qoldirgan “Temur tuzuklari” yozilganiga olti yuz o’n olti yil bo’ldi. Ushbu asar yoshlar qalbiga bemisil g’urur joylab, ularni chinakam inson qilib yetishtirishda, qo’rqmas va dovyurak, aqlli va vatanparvar sifatida tarbiyalashda bebaho bir maktab vazifasini ado etmoqda. Ona Vatanimiz istiqlolini, uning sha’nu shavkatini qanday himoya etishni Amir Temur bobomizning “Temur tuzuklari”idan meros qilib olishimiz va uning himoyasiga hamisha tayyor turmug’imiz lozim.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаъи ус-саъдайн ва мажмаъи баҳрайн. Т., — 1969.



## ИНФОРМАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН Фойдаланишнинг Педагогик Жиҳатлари

Неъматова Дилафруз

Бухоро вилояти, Бухоро тумани  
19-сон умумтаълим мактаби  
тарих фани ўқитувчиси

**Аннотация:** Замонавий ахборот коммуникация технологияларидан оқилона равишда креатив фойдаланиш ва п инновацион педагогик технологияларнинг тўғри ва оптимал самарали жорий этилиши пировард натижада таълимни самарадорлигини кўтаришга хизмат қилади

**Калит сўзлар:** инноватив технологиялар, информацион технологиялар, креатив, виртуал лабораториялар, конструкторлар, имитацион моделлаштириш когнитив дастурлари, тренажёрлар

Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 24-январда Олий Мажлисга қилган Мурожаатномасида Республикамиздаги таълим тизимини тўлиқ янги сифат босқичига кўтариш бўйича бир қанча вазифалар кўрсатилди. Бу борада маҳоратли ўқитувчилар учун имкониятлар яратишни таъкидлаб, педагогик маҳорат ва малака даражасига эга бўлган, ўз ишида аниқ натижаларга эришган ўқитувчиларга юқори маош тўлаш тизимини жорий этиш, мактаб ўқув дастурларини илғор хорижий тажриба асосида такомиллаштириш, ўқув юктамалари ва фанларни қайта кўриб чиқиш, уларни халқаро стандартларга мослаштириш, дарслик ва адабиётлар сифатини ошириш<sup>1</sup> ҳақида тегишли чора-тадбирлар белгилаб олинди.

Педагогик маҳорат ва компетентлик ҳар бир ўқитувчининг ўз устида ишлаши, ижодий меҳнати эвазига юзага келадиган натижадир. Педагогик маҳоратни оширишда ўз устида ишлаш ва ўз-ўзини ривожлантириш муҳим аҳамиятга эга. Педагогик маҳоратни самарали намоён этишда унинг таркибий қисмларидан педагогик билимдонлик, креативлик, педагогик техника, педагогик мулоқот кабилар маданияти ниҳоятда катта роль ўйнайди. Чунки улар шу таълим натижасини самарали қафолатлашга кўмаклашади. Таълимда инноватив креатив интерфаол усуллар, яъни инновацион педагогик ва ахборот технологияларидан технологияларни қўлланилиши эса педагогик маҳоратнинг асосий манбаси ҳисобланади.

Ҳозирги кунда таълим жараёнида интерфаол усуллар, яъни инновацион педагогик ва ахборот технологияларидан фойдаланиб, таълимни самарадорлигини кўтаришга бўлган кизиқиш ва эътибор кучайиб бормоқда.

Таълим муассасалари ўқитувчилари қандай қилиб самарали ва янада натижали ўқитиш мумкин деган саволга жавоб қидирмоқдалар.

Бу эса биз педагогларни ўқув жараёнини креатив технологиялаштириш ва ва замонавий ахборот коммуникация технологияларидан креатив фойдаланишни талаб этмоқда.

Ўқув жараёнида педагогик технологияларнинг тўғри ва оптимал жорий этилиши, ва замонавий ахборот коммуникация технологияларидан оқилона равишда креатив фойдаланиш ўқитувчининг бу жараёнда асосий ташкилотчи ёки маслаҳатчи сифатида фаолият юритишига олиб келади ва бунда унинг педагогик маҳорати қўл келади.. Бу ўз навбатида таълим олувчилардан кўпроқ мустақилликни, ижодни ва иродавий сифатларни талаб этади.

Ҳар қандай педагогик ва ахборот-информацион технологияларини фанни ўқитишда самарали жорий этиш шахснинг характерида келиб чиққан ҳолда ўқитувчи кимни ўқитаётганлигига боғлиқдир.

Фикримизча, фанларни ўқитишда информацион креатив инновацион технологиялар қўлланилиши жараёнида иккита масалани оқилона ҳал этиш мақсадга мувофиқ.

Биринчидан фанлар бўйича етарли билим, малака ҳамда кўникмаларни шакллантириш, яъни яхлит компетенцияларга эга бўлиш бўлса, иккинчидан ушбу касбий фаолиятларида

<sup>1</sup> Ўзбекистон республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2020 йил 24- январда Олий Мажлисга Мурожаатномасида сўзлаган нутқидан



информацион технологияларни оқилона креатив қўллаган ҳолда машғулотларни ташкил этиш малакаларини эгаллашлари керак.

Информацион технологияларни самарали креатив қўллаш куйидаги жиҳатларга эга:

- таълим олувчининг мустақил фикрлаш ва ижодий қобилиятларини ривожлантиришга йўналтирилган;

- ўқитувчи таълим жараёнида маслаҳатчи сифатида қатнашади;
- ўқитиш жараёнидаги ахборот воситалари ва ресурслари фаол интеграцияси таъминланади;

- ўқитиш мотивацияси оширилади;

- таълимнинг интенсивлиги ва натижавийлигини оширади;

- таълим олувчининг мустақил ишлаш ва излаш малакаларини шакллантиради

Айтиш жоизки ҳозирги кунда таълим жараёнига ахборот-коммуникация технологияларларининг тобора юксак имкониятларга эга бўлган янги турлари жадал суратлар билан тобора кириб келмоқда.

Айтиш жоизки ахборот коммуникацион технологиялар воситаларини қатор кўрсаткичлари бўйича турларга ажратиш мумкин:

1. Ҳал илинадиган педагогик масалалари бўйича:

- таянч тайёргарликни таъминловчи воситалар (электрон дарсликлар, таълим тизимлари, билимларни назорат илиш тизимлари);

- амалий тайёргарлик воситалари (масалалр тўпламлари, практикумлар, виртуал лабораториялар, конструкторлар, имитацион моделлаштириш когнитив дастурлари, тренажёрлар);

- ёрдамчи воситалар (энциклопедиялар, луғатлар, адабиётлар, ривожлантирувчи компьютер ўйинлари, мултимедияли ўқув машғулотлари);

- комплекс воситалар (масофали ўқув курслари).

2. Таълим жараёнини ташкил қилиш функциялари бўйича:

- ахборот-таълим (электрон кутубхоналар, электрон китоблар, электрон даврий нашрлар, луғатлар, ўқув компьютер дастурлари, ахборот тизимлари);

- интерфаол (электрон почта);

- изланиш (каталоглар, излаш тизимлари).

Ахборот-коммуникация технологиялар — фойдаланувчи манфаатлари йўлида ахборотларни тўплаш, қайта ишлаш, сақлаш, тарқатиш ва фойдаланиш мақсадларида бирлаштирилган методлар, ишлаб чиқариш жараёнлари ва дастурий-техник воситалар тўпламларини креатив ёндашган ҳолда фойдаланиш куйидаги масалаларни амалга оширишни ўз мақсади қилиб қўйиши жоиз:

- ўқувчиларнинг таълимий мотивларини ошириш орқали уларнинг когнитив жараёнларини ривожлантириш;

- таълим жараёнида психологик эркинлик, педагогик ҳамкорлик муҳитини яратилиши боис ўқувчи талабанинг мустақил фаолиятини кучайтириш;

- билим олиш, кўникма ва малакаларини ривожлантириш ҳамда мустакамлашда ўқувчининг идрок этиш фаолияти барча турларини қўллаб-қувватлаш;

- ахборот қабул қилишнинг визуал, аудал, кинестетик узатилишининг бир вақтда узатилишини таъминланиши, боис тўлиқ ўзлаштиришни таъминлаш;

- таълим жараёни яхлитлигини сақлаб қолган ҳолда ўқув жараёнини индивидуаллаштириш тамойилини амалга ошириш ва хоказо.

Хулоса қилиб, ахборот коммуникацион технологиялар турли таълим воситаларидан таълим жараёнида кретив фойдаланишнинг бир қатор аҳамиятини кўрсатиш мумкин:

1. Мотивацион жиҳати. АКТни қўллаш ўқувчи, талабаларнинг мотивацияларини қизишларини оширишга ва ижодий мотивациясини шакллантиришга ёрдам беради, Бунда ўқувчиларнинг индивидуал таълим имкониятларини ва эҳтиёжларини максимал ҳисобга олиш, ўқув машғулотлари мазмуни, шакллари оптимал танлаш кенг имкониятлари, ўқувчиларнинг ижодий ички имкониятларини кенг фойдаланиш орқали фанлар бўйича тўлиқ ўзлаштиришларига ёрдам беради.

2. Мазмунли жиҳати. Ахборот-коммуникация технологиялар имкониятларидан кенг фойдаланиш бир вақтда бир нечта масалани оптимал ҳал этиш имкониятини беради. Шу билан бирга ўқувчиларнинг замонавий ахборот-коммуникация технологиялар билан



мустақил, индивидуал ишлаш бўйича кўникма ва малакаларини ривожлантиради, Уларнинг когнитив жараёнларини ривожланишини тезлаштиришни таъминлайди.

**Фойдаланилган адабиётлар:**

1. О.Хасанбоева ва бошқ. Педагогика тарихи.-Т.: “Ғ.Ғулом, 2004.-312 б.
2. Б.Зиёмуҳаммадов. Педагогика.-Т.:“Турон-Иқбол”. 2006.-112 б.
3. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 26-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(3-қисм)**

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусахҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.03.2021

**Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000